

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV PO‘LOTSHOH RAMAZONOVICH

**KANONIK MODELLI FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA GAPLARNING
SISTEM-STRUKTURAL, LINGVODIDAKTIK VA KOMPARATIV
TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Bobokalonov Po'lotshoh Ramazonovich

Kanonik modeli fransuzcha-o'zbekcha gaplarning sistem-struktural, lingvodidaktik va komparativ tahlili..... 5

Бобокалонов Пулотшоҳ Рамазонович

Системно-структурный, лингводидактический и сравнительный анализ французско-узбекских предложений в канонической модели..... 19

Bobokalonov Po'lotshoh Ramazonovich

Systematic-structural, Linguodidactic and Comparative Analysis of French-Uzbek Sentences in Canonical Models 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV PO‘LOTSHOH RAMAZONOVICH

**KANONIK MODELLI FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA GAPLARNING
SISTEM-STRUKTURAL, LINGVODIDAKTIK VA KOMPARATIV
TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil2242 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayeva Ra'no Raupovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kiselev Dmitriy Anatolyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yakubov Jamoliddin Abduvaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «03» iyun soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (278 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» may kuni tarqatildi.

(2023 yil «15» may dagi 2319 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M. Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kanonik modeli gaplarning tadqiqi borasidagi ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayonda, fransuzcha-o'zbekcha gaplarni system-struktural, lingvodidaktik va komparativ tahlil asosida o'rganish, oraliq uchinchida turgan nutqiy hosilalarning geterogen (xilma-xil), formal-funksional, leksik-semantik jihatlarini o'rganish, so'z-gaplarning alohida belgilari va xususiyatlari yuzasidan tadqiqotlar keng ko'lamda amalga oshirildi. Bunda so'z-gaplarni kommunikativ, formal-funksional, lingvodidaktik asosda talqin qilish ularning pragmatic o'ziga xos g'ayritabiiy xususiyatlarini lison//nutq ziddiyatida tatbiq etish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida fransuz tili grammatikasi, jumladan, semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning iyerarxik o'suvchanligi, darajalanishi, valentlik ko'lamini boshqa tillar bilan qiyosda o'rganish borasida keng ko'lamli izlanishlar amalga oshirilgan. Buning mantiqiy natijasi sifatida fransuz va o'zbek tillaridagi so'z-gaplarning inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi lingvodidaktik, psixolingvistik va sotsiolingvistik faktorlarga aloqadorligini va nutqiy hosilalarning leksik-grammatik tizimdagi o'rnini, semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va atipik gaplarning farqli chegaralarini aniqlash kabi ustuvor yo'nalishlar kanonik modeli nutqiy hosilalarning kognitiv, lingvistik, pragmatik, intralingvistik va ekstralingvistik qiymatini aniqlashga, kanonik modeli nutqiy hosilalar insonning nutq madaniyatiga, ijtimoiy ongiga, tolerantlik ruhiyatiga ta'siri va lingvodidaktik, lingvomadaniy, kommunikologik va neyropsixolingvistik qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat"¹ ligi tilshunoslik oldiga ham fundamental tadqiqotchilarni jahon andozalari darajasida yuksalishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Bu borada fransuz va o'zbek tillaridagi geterogen sintaktik hodisalarni lison//nutq dixotomik tamoyilida ikki noqardosh tilning sintaktik, leksik va funksional-stilistik jihatdan tahlil qilinishi fransuz tilidagi atipik nutqiy hosilalarning o'zbek tilidagi lisoniy qolipli semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar yagona kanonik modeli nutqiy hosila tushunchalarini yaratishga keng yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalari o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21. 10. 2019. <http://uza.uz/posts/33304>

tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi qatorida o'zbek tilshunosligida ham so'z-gaplar yuzasidan XX asrning 60-yillariga qadar jiddiy izlanishlar olib borilmagan. Faqatgina 40-50-yillarga kelib o'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar undovlarning bir ko'rinishi sifatida G'arb sintaksisi muvozanatida o'rganildi. So'z-gaplarni dastlab, professor A.G'ulomov ² "Bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar" mavzusi doirasida tahlil qildi.

O'zbek tilshunosligida so'z-gaplar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar bilvosita A.N.Kononov va bevosita S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov, R.Sayfullayev, H.Boltaboyeva, S.Saidov, E.Shodmonov, I.Toshaliyev, A.Boboyeva, R.Qo'ng'urov, G'.N.Zikrillayev, R.A.Kamiljanova, B.O'rinboyev, R.M.Mo'minova, O'.Lafasov, A.Hazratqulov, M.Maqsudovalar tomonidan amalga oshirildi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, H.G'.Ne'matov, R.R.Sayfullayeva, A.Nurmonov, R.Bobokalonov va boshqalarning tadqiqotlarida zamonaviy qarashlar paydo bo'ldi. R.Bobokalonov so'z-gaplarni alohida "so'z-turkumi" sifatida qayd etib, lison//nutq dixotomiyasi asosida ularning getorogen belgilari borligini aniqlab, so'z-gap va uning atrofidagi hodisalarni sof o'zbek tilshunosligi obyekti sifatida o'rgandi.

Fransuz tilida so'z-gaplar bilvosita Malberg Bertil, Andre Martine, Lusyen Tenyer, Charl Balli, Gustav Giyom tadqiqotlarida, bevosita esa Andre Juyet, Klod Jerman, Martin Rejel va boshqa tilshunos olimlar³ ilmiy asarlarida so'z-gaplarga munosabat bildirildi.

Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplarning xususiyati keng o'rganilganligiga qaramay, hozirgacha uning komparativ, lingvopragmatik, lingvodidaktik, lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatlari fransuz va o'zbek tillari qiyosida tadqiqi etilmagan. Mazkur tadqiqotda o'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar bilan fransuz tilidagi kanonik (atipik) gaplar substansial (formal-funksional) tadqiq usuli asosida "me'yoriy qoida"ga binoan leksik-

² G'ulomov A.F. O'zbek tili grammatikasi (II bo'lim, Sintaksis, pedbilim yurti o'quvchilari uchun) Toshkent : Maorif XK nashr.,1940, -84 b.; G'ulomov A.F. Sodda gap. – Toshkent : «Fan», 1955, -12-18 b; G'ulomov A.F. Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent : O'qituvchi, 1987. 5-29; 37-42; 154-157b.

³ Malmbert Bertil. Les Nouvelles tendances de la linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972; André Jouette, L'essentiel de la grammaire française, Maxi-Livres pour la présente édition, 2002, Paris; Brunot F. La pensée et la langue: Methode, principe et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français. – P. : Masson, 1965. – 982 p.; . Gustave G. Temps et verbe. Théorie des aspects, des modes et des temps suivi de l'architecture du temps dans les langues classiques, Honoré Champion, Paris, 1984 (original 1929), ISBN 2 85203 129 9. Guillaume G. Langage et science du langage. Paris-Québec, Presses de l'Université Lava 1-A. -G. Nizet, 1964. – 287 p.;; Claude Germain, Hubert Sécuin. Le point sur la grammaire, 1998, Paris.

semantik va morfosintaktik birliklarning zotiy tabiatini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasining “Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fransuz va o‘zbek tillaridagi kanonik modeli gaplarning system-struktur, lingvodidaktik va komparativ tahlili asosida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fransuz va o‘zbek tillaridagi so‘z-gaplarning inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi lingvodidaktik, psixolingvistik va sotsiolingvistik faktorlarga aloqadorligini va nutqiy hosilalarning leksik-grammatik tizimdagi chegaralarini aniqlash;

mazkur turdagi lisoniy birliklarni qiyosiy-tipologik aspektda substansional, kognitiv, ontologik tabiatiga ko‘ra yagona kanonik modeli gaplar atamasi ostida birlashtirib o‘rganish;

fransuz va o‘zbek tillaridagi geterogen sintaktik hodisalarni lison//nutq dixotomik tamoyilda ikki noqardosh tilning sintaktik, leksik va funksional-stilistik materiali asosida tahlil qilish;

o‘zbek tilidagi [W^P] lisoniy qolipli semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar bilan fransuz tilidagi atipik nutqiy hosilalarni yagona kanonik modeli nutqiy hosila tushunchasi ostida sintez qilish;

fransuz tilidagi binary, presentativ va atipik nutqiy konstruksiyalar hamda o‘zbek tilida uchinchi darajali sintaktik bo‘laklar – undalma, kirish so‘z va kiritmalar misolida kanonik modeli nutqiy hosilalarning kognitiv, strukturologik, pragmatik tadqiqida lingvodidaktik, ekstralingvistik va sotsiolingvistik qiymat borligini umumlashtirib o‘rganish mumkinligini isbotlash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida fransuz va o‘zbek xalqlarining lingvomadaniy qatlamidagi nutqiy hosilalar, badiiy asarlar, og‘zaki dialogik nutq materiallari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini kanonik modeli fransuzcha-o‘zbekcha gaplar, ya’ni o‘zbek tilidagi so‘z-gaplar va fransuz tilidagi atipik nutqiy hosilalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida substansial tadqiq, differensiya, konseptual-komponentli sintez, qiyosiy-chog‘ishtirish, shuningdek, matematik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

fransuz va o‘zbek tillaridagi semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalar integral belgilarining o‘xshashligi ularning mustaqil gap shaklida kelishida, gap bo‘laklarining sintaktik aloqaga kirmaslik tabiatida, o‘zgaruvchan, g‘ayrioddiy ma’no kasb etishida, mayl-munosabat, zamon

va shaxs-son shakllariga ega bo'lmashligida, bog'lamalarni qabul qilmaslikda namoyon bo'lishi aniqlangan;

insonning nutq madaniyatini, ijtimoiy ongini, tolerantlik ruhiyatini, muzokara yuritish qobiliyatini, kommunikativ fors-major holatlardan chiqish strategiyalarini, tabiiy muloqot o'rnatish tamoyillarini belgilashda kanonik modeli nutqiy hosilalarning lingvomadaniy, kommunikologik va neyropsixolingvistik jihatlari ustuvorligi dalillangan;

har ikkala tilda semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning iyerarxik gradatsiyasi kesimlikning valentlik nazariyasiga qisman aloqadorligi, o'zaro leksik-semantik jihatdan o'xshash va variativ xarakterda ekanligi asoslangan;

kanonik modeli nutqiy hosilalarning kognitiv, lingvistik, pragmatic, sotsiolingvistik, ekstralingvistik va intralingvistik qiymatini belgilashda mazkur birliklarning zamon paradigmasiga nisbiy aloqadorligi, geterogen (xilma-xil) jihatlari, o'zbek tilida kesimlik ma'nolari va ko'rsatkichlari morfologik jihatdan yaqqol ifodalanmasligi kabi omillarning ustuvorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

noqardosh tillar qiyosiy aspektida [WPm] qolipidan chetda qolgan va oraliq uchinchi bosqichida turgan, lisoniy tizimda barqaror [W^P] qolipiga mos keladigan leksik birliklar – modallar, undovlar, tasdiq-inkorlar, taklif-xitob so'z-gaplarning guruhlari va tarkibiy tuzilishi, pog'onali (iyerarxik) o'sib borishi, ularning o'ziga xos leksik-semantik, gradionimik va gipo-giperonomik jihatlari mavjudligi isbotlangan;

kanonik modeli nutqiy hosilalarning ekstralingvistik va intralingvistik qiymati, kognitiv lingvistik talqini sifatidagi xususiyatlari jahon tilshunosligining eng so'nggi yutuqlari asosida aniqlangan;

fransuz va o'zbek tillari chog'ishtirma-qiyosiy aspektida kanonik modeli nutqiy hosilalarning struktur-sintaktik, lingvodidaktik va komparativ tadqiqi bo'yicha to'plangan materiallar, umumlashma va xulosalar hozirgi qiyosiy tilshunoslik sohasini muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning substansial tadqiq, differentsiatsiya, konseptual-komponentli sintez, qiyosiy-chog'ishtirish, matematik tahlil usullari bilan asoslanganligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fransuz va o'zbek tillarida alohida g'ayritabiiy sintaktik qurilishga ega bo'lgan leksik-semantik birliklarning nutqiy voqelanishi kanonik modeli nutqiy hosilalar tizimi asosida lingvodidaktik, lingvomadaniy, pragmatic va neyrolingvistik nuqtai nazardan o'rganilganligi sintaksis sohasida so'z-gaplar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga oydinlik kiritishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oily va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya", "Qiyosiy tilshunoslik", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Nazariy grammatika" fanlarini o'qitishda, mustaqil ilmiy izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga maxsus kurslarni tashkil qilish va ikki tilde turli tematik so'zlashgichlar tayyorlashda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fransuz va o'zbek tillarida kanonik modeli gaplarning lingvomadaniy, lingvodidaktik, neyrolingvistik va qiyosiy pragmatik xususiyatlari tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

fransuz va o'zbek tillaridagi semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalar integral belgilarining o'xshashligi ularning mustaqil gap shaklida kelishida, gap bo'laklarining sintaktik aloqaga kirmaslik tabiatida, o'zgaruvchan, g'ayritabiiy ma'no kasb etishi bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017-2020 y.y.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022 yil 7-dekabrda 17.01/205-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada nazarda tutilgan nutqiy hosilalarning millat tafakkurini shakllantirishdagi rolini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

kanonik modeli nutqiy hosilalar insonning nutq madaniyatiga, ijtimoiy ongiga, tolerantlik ruhiyatiga ta'siri va lingvodidaktik, lingvomadaniy, kommunikologik va neyropsixolingvistik o'rni borligi, diplomatic muzokara yuritishda, kommunikativ fors-major holatlardan chiqishda, tabiiy muloqot o'rnatishda kanonik modeli nutqiy hosilalar zaruriyatiga doir xulosalardan Qozoqiston Respublikasi o'zbeklari etnomadaniy birlashmalarining "Do'stlik" hamjamiyati "Ijodkor" adabiy birlashmasining targ'ibot faoliyatida, xususan birlashma tomonidan o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyalar hamda o'zbek tiliga, o'zbek va qozoq olimlarining ilmiy-ijodiy hamkorligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy tadbirlarda foydalanilgan (Qozoqiston Respublikasi o'zbeklari etnomadaniy birlashmalarining "Do'stlik" hamjamiyatining 2022 yil 2-fevraldagi 4-son ma'lumotnomasi raqami). Natijada matnlarning leksik, semantik qatlamidagi leksemalarning lingvopragmatik xususiyatlarini til o'zlashtirish asosi sifatida talqin etishga imkon bergan;

har ikkala tilde semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning iyerarxik gradatsiyasi kesimlikning valentlik nazariyasiga qisman aloqadorligi, o'zaro leksik-semantik jihatdan o'xshash va variativ xarakterda ekanligi bilan bogvliq xulosalardan 2021-2022 yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston» teleradiokanali davlat muassasining «Bedorlik», «Ijod zavqi», «Ta'lim va taraqqiyot», «Millat va ma'naviyat» eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022 yil 18-yanvardagi 04-36-99-son

ma'lumotnomasi). Natijada milliy tildagi lingvodidaktik vositalarning kommunikativ nutqdagi o'rni va rolini asoslash imkonini kengaytirishga erishilgan;

kanonik modeli nutqiy hosilalarning kognitiv, lingvistik, pragmatic, sotsiolingvistik, ekstralingvistik va intralingvistik qiymatini belgilashda mazkur birliklarning zamon paradigmasiga nisbiy aloqadorligi, geterogen (xilma-xil) jihatlari, o'zbek tilida kesimlik ma'nolari va ko'rsatkichlari morfologik jihatdan yaqqol ifodalanmasligi kabi omillar ustuvorligiga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi loyihalarni bajarishda foydalanilgan. Xususan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi F3-2019081663 raqamli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2022-yil 2-yanvardagi 1/04-03-son ma'lumotnomasi). Natijada lingvodidaktik jihatdan nutqiy hosilalarning ijtimoiy ong va tolerantlik ruhiyati bilan bog'liqligi, ekstralingvistik va intralingvistik faktorda kommunikativ vosita sifatida reallashuvini dalillashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'zbekcha-fransuzcha lug'at, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika miqyosidagi va 5 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishinchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek tilida gap sintaksisi iyerarxik masalalari va uning system-struktur yechimi**" deb atalgan birinchi bobi formal-funksional grammatikaning lison//nutq masalalari, o'zbek tilida soda gap talqini va sinxron tahlili, sintaksisda "oralik uchinchi" termini va muammosi, kirish kengaytiruvchi

va kiritma masalalari, o‘zbek tilshunosligida substansional tadqiq, ya’ni gapning eng kichik qurilish qolipi va [WPm] ramzi, [WPm] ning lisoniy mohiyati, [WPm] va [W^P] = gapning kesimlik qurilishi ko‘rsatkichlari sifatida, grammatik shakllangan gap va kesimlik muammosi, kesimlikning implisit ko‘rinishi, [W^P] qolipli gaplarning iyerarxik va graduonmik masalalari, semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarning nomlash masalasi, semantik-funksional shakllangan gap-so‘zlarning iyerarxik xususiyati, semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarda leksik va sintaktik tarz, semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarda sintaktik qurshov va sintaktik kategoriya, semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar tasnifidagi «ma’noviy nomustaqillik», semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarning kengayish xususiyati o‘rganilgan.

Jahon tilshunosligi tarixidan ma’lumki, XVII asr faylasuflari R.Dekard, B. Spinoza, N.Kant, G.Leybnits, Fixte, G.Gegel kabilar “aql-inson faoliyatida yetakchi omil” bo‘lishini e’tirof etganlaridan so‘ng, til grammatikasi ana shu falsafiy nuqtai nazardan ikkiga – “universal” va “ratsional” grammatikaga bo‘lindi.

“Universal grammatika” ta’limoti bo‘yicha V.Gumboldt (1767-1857) ilmiy qarashlaridan so‘ng F. de Sossyur va uning izdoshlari til tizimini o‘zgartirib yuborib, “belgi+belgilovchi+belgilanmish” (“signifié+signifiant+signification”)

nazariy masalalarini triadic differentsiatsiya qildilar. Shu ta’limot asosida lison//nutq dixotomiyasi yaratildi va shu ta’limotga asosan o‘zbek tilida gapning kesimlik qurilishi ko‘rsatkichlari - [WPm] sodda gap qolipi [W] atov birligi [Pm] vositalari kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichlari majmui bilan belgilandi⁴.

Shunga qadar G‘arb tilshunosligi formal (an’anaviy) grammatikasi ta’sirida gapga nutqiy hodisa sifatida baho berish, gapning ikki tarkibli lisoniy qolipi ([S←P] = [ega←kesim])ni subyektning hokimligi, predikatning subyektga tobeligi mantiqiy hukm ostida asoslab ko‘rsatish o‘zbek tili sintaksisida rivojlantirilib⁵, so‘z-gaplar atrofida muammolar ham rus grammatikasi andozasida A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov nazariyasiga muvofiq “subyekt-predikat”ning mezon va tamoyillariga asosan o‘zbek tili grammatikasiga “transplantatsiya” qilindi. Chunonchi, rus olimasi V.V.Babayseva tadqiqot ishi asosida S.Usmonov, Sh. Rahmatullayev, S. Saidov, R. Ikromova, E. Shodmonov, X. Abdurahmonov, I.Suyarov, R.M.Mo‘minova⁶ kabi tadqiqotchilar izlanishlarida bular yaqqol sezilib turadi. Ulardan farqli o‘laroq, sistem-struktur tilshunoslik

⁴ Abuzalova M. O‘zbek tilida soda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi.-Toshkent, NDA, 1994.

⁵ O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis, P.t., «Fan»nashriyoti, 1976.

⁶ Babayceva V.B. Слова-предложения в современном русском языке. Труды Воронежск. пед. института Т. XXII -Воронеж, 1962. С. 171; Usmonov S. Undov-gaplar. –T.: Fan, 1955; Rahmatullayev Sh. Modal so‘zlar. –T.: Fan, 1957. Икромова Р. Модальные формы и существительных в современном узбекском языке. АҚД, 1967; Муминова Р.М. Вводно-модальные слова и словосочетания русского языка и их соответствие в узбекском языке. АҚД. Самарқанд. 1971; Саидов С. Модальные слова в немецком и узбекском языках. АҚД –Т.: Наука. С. 4-15; Шодмонов Э. Слова предложения в современном узбекском языке. АҚД, Тошкент, 1970. Б.5-18; Suyarov I. "Ana" va "mana" so‘zlari haqida//Tilshunoslik va adabiyotshunaolikka oid tadqiqotlar. -T.: 1965; Teshaliyev I. Kiritmalar haqida//O‘TA, 1968. № 4. В.-34-35; Shodmonov E., Abdurahmonov X. So‘z-gap va to‘liqsiz gap. ToshPI ilmiy asarlari, 87-tom. 1972. В. -37-53; Муминова Р.М. Вводно-модальные слова и словосочетания русского языка и их соответствие в узбекском языке. Авт.... кан. ...дисс. Самарқанд. 1971. С. 6-78.

zaminida “oraliq uchunchi” nazariyasiga muvofiq o‘tgan asrning 80-yillardan e’tiboran o‘zbek tili sintaksisining o‘ziga xos jihatlari borligi e’tirof etildi. Sintaksis sohasidagi tadqiqotlarda yaqqol bo‘rtib ko‘rinadigan sintaktik muammo H.G‘.Ne‘matov, A.Nurmonov, I.Qo‘chqortoyevlar boshchiligida R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, Sh.Akramov, M.Boshmonov, Z.Eraliyeva, B.Mengliyev, S.Nazarova, R.Bobokalonov, L.Raupova va boshqalar tomonidan o‘z yechimini topdi. So‘z-gaplar ham kesimlilikning implisit ko‘rinishi Grammatik shakllangan gaplar va semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar ziddiyati asosida tadqiq qilindi. Gapning minimal qurilish qolipi kesimlik kategoriyasiga muvofiq o‘rganildi va a) *grammatik (morfologik) shakllangan gaplar* [WPm] qolipi [M.Abuzalova] bilan b) *semantik-funksional shakllangan (morfologik shakllanmagan) gaplar* [W^P] qolipi oppozitsiyaga qo‘yib o‘rganildi⁷.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Til tizimi, struktural talqin va sintaktik tahlil: lisoniy qolip va nutqiy hosila**” deb nomlanib, unda til tizimi, til tizimining sistemaviy tushunchasi, zamonaviy lingvistikada Ferdinand de Sossyur semiotik ta’limotining o‘rni, o‘zbek tilida gapning sintaktik tahlili, lison//nutq dixotomiyasi zanjirida lisoniy qolip va avtomatlashgan nutq formulasining ahamiyati, lison//nutq qurilishi va diskurs masalalari sinteziga ilmiy munosabat bildirilgan. Sintaktik sathda paradigmatic, sintegmatik va distributive aloqadorlik, gapning mantiqiy talqini, fransuz va o‘zbek tilida kanonik modeli gaplarning paradigmatic xususiyatlari, gap tarkibidagi unsurlarning obyektiv va substansional qiymati, Andre Martinening “Funksional tahlil” ta’limoti, Lyusyeyn Tenyerning “aktant” nazariyasi asosida kanonik modeli nutqiy hosila atipik gap turi sifatida tahlilga tortilgan va ularning kesimlilik hamda valentlikka aloqadorligi misollar asosida tahlil qilingan.

O‘zbek system tilshunosligining substansial (formal-funksional) talqini H.G‘.Nigmatov, I.Qo‘chqortoyev, A.Nurmonov, K.M.Abdullayev, V.I.Banaru, N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Rasulov, R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, O.Bozorov, R.Safarova, A.R.Sayfullayev, M.Qurbonova, Sh. Shahobiddinova, M.Bashmanov, A.Berdialiyev, B.Mengliyev, Sh.Akramov, L.Raupova, R.Bobokalonov, S.Nazarova, R.Xidirov, D.A.Muhammedova, T.Madrahimov va boshqalar tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan. Leksik va sintaktik hodisalarda substansial (lot.substantia-mohiyat) hamda aksidensial (yunon. g‘ayritabiiy, hayratlanarli, tushunarli, bahs talab etmaydigan haqiqat) jihatlar borligi farqlangan. So‘z, so‘z birikmasi va gaplar lison//nutq dixotomik ziddiyatida atroflicha o‘rganilgan.⁸ M. Abuzalova fikricha: “Lison//nutq sathida kesimlik bu-

⁷ Bobokalonov R. O‘zbek tilida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar. Toshkent, NDA, 2000.

⁸ Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурмонов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков/ Тезисы формально-функционального исследования// Сов. тюрк. 1984, №5 -5-10 б.; Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar.-T.:Fan, 1982; Нигматов Х.Г. Включенное третье в тюркском синтаксисе // Тезисы докладов и сообщений У Всесоюзной тюркологической конференции. Фрунзе.: изд. Илми. – С.206-208. Nigmatov X. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o‘rganish masalalari. «O‘zbek tili va adabiyoti», 1993, 2-son; Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning formal-funksional talqini. Monografiya.–T.: Fan, 1994. Rasulov R.O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari. T.:Fan, 1994; Shahobiddinova Sh.O‘zbek tili morfologiyasi

Lison//nutq sathida kesimlik, bu – leksik shaklning morfologik ko‘rsatkichlar bilan shakllangan *atov birligidir*. Kesimlik kategoriyasi gapning “joni” – markazini tashkil etuvchi kategoriyadir.”⁹ Shundan kelib chiqib, gap qolipi lisoniy tamoyil sifatida nutq hosilasining tashkil etuvchisidir, ya’ni [WPm]ning kesimlik ko‘rsatkichlari: [N+M+T+P] ga – tasdiq/inkor – [N], mayl/modallik – [M], zamon – [T] va shaxs/son– [P] kabi kesimlik ma’nolariga egadir. Nutqiy hosila diskurs bilan uzviy bog‘liq holda o‘nlab: *darak, so‘roq, buyruq, undov, his-hayajon, so‘roq-undov* va shuningdek, *ritorik ohang, intonatsiya, tana harakati, imo-ishora* va hokazo sintaktik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin. Diskursda *neytral, gumon, ishonch, taxmin, taajjub* kabi qo‘shimcha ma’nolar hamrohlik qiladi. Shunga muvofiq o‘zbek tilida gaplarning shakllanish usuliga ko‘ra: 1. Grammatik shakllangan gaplar - [WPm] va 2. Semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar – [W^P] farqlanadi.



Til tizimida paradigmatic va sintagmatik virtual belgilariga ega bo‘lmagan o‘zbek tilidagi [W^P] qolipli so‘z-gaplarni fransuz tilidagi kanonik modelli gaplarga muqobil qo‘yib o‘rganish mumkin. Ilmiy kuzatishda fransuz tilshunosligida kanonik modelli nutqiy hosilalar ikki xil – “kanonik” (“*la phrase canonique*”) va “atipik” terminlari¹⁰ bilan ilmiy muomalaga kiritilgani uchraydi. Shular bilan birga, A.Martining funksional tahlil nazariyasida nutqning eng kichik birligi “monema” tushunchasi va Lyusyen Tenyerning “aktant” nazariyasi so‘z-gaplar uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Kanonik modelli nutqiy hosilalarda sintaktik valentlik ham uchrab turishi, fe’lga xos valentlik mjunosabati borligi kesimlik doirasida o‘rganildi. O‘zbek tilida

umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida. 1-juz.-Andijon,1994; Abuzalova M. O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. Nom.dis.avtoref.-T.,1994; Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. T.: 1996; Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: O‘qituvchi, 1995; Akramov Sh. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol [WPm] valentligi asosida. FFNDA..-T.:1997. Nurmonov A. Tilni sistemali o‘rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari// O‘zbek tili va adabiyoti, 1998.№5.- b.20-26; Raupova L. O‘zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WPm-WPm] qurilishli gaplar. FFNDA. –T., 1999; Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. – Qarshi: Nasaf, 2003. Bobokalonov R. O‘zbek tilida gap sintaksisi va so‘z-gaplarning system-struktur talqini. Monografiya. –T.:Fan, 2006.-3-127. Bozorov O. O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. FFNDA. - Farg‘ona: 2004;

⁹ Abuzalova M. O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. FFNDA. – T.:1994. 22-b; Abdullayeva D.A. Semantik-sintaktik valentlik va o‘zga gapli qurilmalar. FFNDA.-Samarqand, 2002.; Akramov Sh.T. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol. /WPm/ valentligi aspektida. FFNDA. –T.: 1997.-5-9 b.; Башманов М. Изучение членов предложения узбекского языка в дихотомия "Язык - речь". Уровень языка. АДК. Тошкент, 1991. С. 7-24.; Bobokalonov R. O‘zbek tilida gap sintaksisi va so‘z-gaplarning system-struktur talqini. Monografiya. –T.: Fan, 2006.-3-127.; Ne‘matov H. Bobokalonov R. Raupova L. O‘zbek tilida nomustaqil kesimlik shakli // O‘TA, 2000, 2-son, 19-25 b.; Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: Fan,1992.-B85-89.

¹⁰ Kanonik terminining tub etimologik ma’nosi: «canonique», syn.: normal - orthodoxe – régulier, latin canonicus, du grec kanonikos.

“dod” leksemasi zanjirida iyerarxik o‘svuchanlik, leksik-sintaktik kengayish va darajalanish mavjud (*Dod* → *Voy dod* → *E voy dod* → *Zolimlarning dastidan dod* → *Ey falak, bu zolimlarning dastidan dod!*) bo‘lsa, fransuz tilidagi nutqiy hosilalar (1. *Voilà* → *Voilà qu’il neige !* → *Ne voilà pas.* → *Ne voilà pas qu’il revient?* 2. *C’est claire.* → *C’est bien claire*; 3. *C’est possible* → *C’est encore possible* ; 4. *Il est nécessaire – Il est très nécessaire*)da ham buni kuzatish mumkin. Fransuz tili so‘z-gaplarida zamon paradigmasi (*C’est possible* → *C’était possible*- *C’est possible* → *Ce n’est pas possible. C’est impossible*) ko‘p uchraydi.

Ayrim holatda o‘zbek tilida ham so‘z-gapning (*Ajoyib, ajoyib ekan, ajoyib edi*) bog‘lama bilan kelishi kuzatiladi. Bu hodisa alohida tadqiqotni talab etadi.

“Semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning sintaktik, gradionomik, interkulturalogik, lingvopsixologik, neyrolingvistik va lingvodidaktik xususiyati” deb nomlangan uchinchi bobda kanonik modeli nutqiy hosilalarning tipik gaplardan farqi, o‘xshashlik jihatlari, xoslik va ziddiyati, ularning leksik-semantik darajalanishi, gaplarning binary qurilishi, prezantativ nutqiy hosilalarning o‘ziga xos jihatlari, ularning interkulturalogik, lingvopsixologik, neyrolingvistik va lingvodidaktik ahamiyati, semantic-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning tolerantlikka xos lingvodidaktik o‘rni, “sabr” leksemasi zanjiri misolida tolerant kanonik modeli nutqiy hosilalar leksik maydoni, ularning inson ruhiyatiga ta’siri borligi ta’kidlangan. Mazkur bobda F. de Sossyurning semiologik ta’limoti va “semantic differensiasiya” nazariyasi, kanonik modeli nutqiy hosilalarning neyropsixolingvistik ahamiyati, ularning lingvodidaktik tabiati o‘rganilgan.

Mazkur bobda kanonik modeli fransuzcha-o‘zbekcha gaplarning qiyoslashda “*sintaksema*”, “*monema*”, “*aktant*”, “*valentlik*” atamalariga murojaat qilindi. Andre Martinening o‘zining funksional tahlil nazariyasida “**monema**” terminini ishlatgan, Lusyen Tenyer esa gapga nisbatan “aktant” atamasini qo‘llagan. O‘zbek tilida “bo‘laklarga ajratilmaydigan” tushunchasi ham fransuz tili sintaksisida “atipik” yoki “kononik” atamasi ostida deyarli bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning integral belgilari o‘xshash: 1. Mustaqil holda gap bo‘ladi; 2. Gap tarkibidagi biron bo‘lak bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi; 3. O‘zgaruvchan g‘ayrioddiy ma’noga ega. 4. Mayl-munosabat, zamon va shaxs-son shakllariga ega bo‘lmaydi va odatda bog‘lama qabul qilmaydi. Masalan, fransuz tilida: 1. *Bonjour, comment allez-vous?* 2. *Salut, ça va ?* 3. *Au revoir - à bientôt - à plus !* 4. *Oui – Non.* 5. *C’est génial ! – C’est nul !* 6. *S’il te plaît, merci, de rien.* 5. *Une cigarette ? – Oui.* 9. *Ça ne me dit rien...* 10. *Bon appétit !* 11. *Mmh, c’est bon.* 12. *Beurk, je n’aime pas.* 13. *Ça te va très bien !* 14. *J’ai envie de toi !* 15. *Pardon.* 16. *Tshin-tshin ! A votre santé ! A ta santé !* 17. *Oh là là !!!* kabi kanonik nutqiy hosilalar ko‘p uchraydi.

O‘zbek va fransuz tillaridagi kanonik modeli nutqiy hosila differensiasiyasi quyidagicha:

O'zbek tilida [WP] qolipli [SFShSG] lar	Fransuz tilida atipik modeli kanonik modeli nutqiy hosilalar
<p>1 So'z-gaplar.</p> <p>a) modal so'z-gap: <i>Ehtimol, borarman.</i></p> <p>b) undov so'z-gap: <i>Ofarin, haqsiz.</i></p> <p>c) taklif-xitob so'z-gap: <i>Marhamat!</i></p> <p>d) tasdiq-inkor so'z-gap: <i>Balli! ha. Yo'q. Shunday.</i></p> <p>2. Muallif gapi: <i>Qo'chqor</i>: "Bolalaring qani?" <i>Qumri</i>: "Maktabda". (Sh. Boshbekov)</p> <p>3. Kirish so'z: <i>"Do'stlar, narigi xonaga o'taylik."</i></p> <p>4. Kirish gap: Asqarali tog'a, <i>bas (qiling) endi</i>, shu choyni ichaymi-yo'qmi?! (T.Malik)</p>	<p>1. Mots-propositions: <i>Ça va?</i> - АХВОЛ ЯХШИМИ?</p> <p>2. Phrases présentatives (Презантатив гаплар) - <i>Voilà le stylo!</i></p> <p>3. Construction binaire (binar konstruksiya) – Vraiment, possible</p> <p>4. Phrases nominales (Nominativ gap): <i>Le printemps.</i></p> <p>4. Insertion d'une phrase :</p> <p>1) Propositions incidentes (Kirish gap): <i>Il viendra, j'espère. - O'ylaymanki, u keladi.</i></p> <p>2) Propositions incises (muallif gapi) : <i>- Je vais à midi, dit Jacques</i></p>

Kanonik modeli nutqiy hosilalar leksik-semantik ma'nolari jihatdan darajalanadi:

1. Admiration, curiosité / Qoyil qolish, qiziqish : *Bravo ! Oh la-la ! Oh c'est bien ça ! –Ofarin. Balli. Yashang. Bay-bay.*

2. Surprise, stupéfaction / Ajalblanish, hayratlanish: *Ah c'est ça ! Oh la-la ! – Yo tavba. Yo xudoyo tavba. Voy sho'rim!*

3. Satisfaction, applaudissement, joie, passion, plaisir, délice / Mammunlik, olqish, sevinch, shavq, zavq, quvonch: *Formidable ! Excellent ! Très gentille – Ajoyib. Behad go'zal. Gap yo'q. Barakallo. Balli. Balli shovvoz...*

4. Protestation, insécurité; douleur, chagrin / Norozilik, ishonchsizlik; og'rinish, achinish: *Merde ! Non, s'est impossible ! Ce n'est pas ça ! – Tavba! Tavba deng. Oxiri baxayr bo'lsin. Shaytonga hay bering !*

5. Gratitude, consentement, excuses / Minnatdorlik, rozilik, avf so'rash: *Merci. Pardon – Rahmat. Uzr. Avf eting. Minnatdorman. Rozi bo'ling. Alloh rozi bo'lsin! Baraka toping.*

6. Accusation, jalousie, plainte, protestation / Ayblash, qizg'anish, shikoyat, norozilik: *Merde. Salot. Tant fou. – Ablah, padarla'nat. Iblis.*

7. Applaudissement, encouragement, aspiration / Olqish, undash, intilish : *Admirable! Formidable ! – Barakallo. Yashavoring. Baraka toping!*

